

JAMOAVIY SPORTDA LIDERLIK VA PSIXOLOGIK IQLIMNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Turg'unova Shirin Zokirjon qizi

talaba

O'zDJTSU SP 51-22 guruh talabasi

Qahhorova Shoxsanam Abduzoir qizi

Ilmiy rahbar:, o'qituvchi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15687586>

Annotatsiya. Jamoaviy sport turlarida liderlarning ahamiyati va sportchilarning psixologik holatini sport natijalariga ta'sirini o'rganish.

Аннотация. Изучение значения лидеров в командных видах спорта и влияния психологического состояния спортсменов на спортивные результаты.

Abstract. Studying the importance of leaders in team sports and the impact of athletes' psychological state on sports results.

Kalit so'zlar: Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish, lider, psixologik muhit, uyushganlik, uyushmaganlik, murabbiyning arzandalari

Ключевые слова: Развитие командных видов спорта, лидер, психологическая среда, организация, неорганизованность, ценности тренера

Keywords: Development of team sports, leader, psychological environment, organization, disorganization, coach's values

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.12.2024 yildagi «Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-421-son qarori qabul qilindi.

Jamoaviy sport turlarini (voleybol, basketbol, gandbol, regbi, chim ustidagi xokkey, suv polosi) rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari:

Yoshlarning jamoaviy sport turlariga qiziqishini oshirish, sport musobaqalarini muntazam o'tkazish;

milliy terma jamoalar va professional sport klublari uchun sport zahirasini yaratish, shuningdek iqtidorli yosh sportchilarni aniqlash, saralash va seleksiya qilishning raqamlashtirilgan tizimini joriy etish;

murabbiylar, hakamlar va mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

jamoaviy sport turlari bo'yicha zamonaviy sport ob'ektlarini yaratish, mavjudlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.

2025/2026 o'quv yilidan boshlab barcha davlat universitetlarida jamoaviy sport turlari bo'yicha sport klublari, boshqa davlat oliy ta'lim muassasalarida – kamida uchta jamoaviy sport turi bo'yicha tashkil etiladi.

Shuningdek, 2025/2026 o'quv yilidan boshlab jamoaviy sport turlari bo'yicha sport musobaqalari o'tkaziladi:

«Maktab ligasi» – umumiy o'rta ta'lim maktablarining maktab sport klublari o'rtasida;

«Talabalar ligasi» va «Oliy ta'lim kubogi» – oliy ta'lim muassasalarining sport klublari o'rtasida;

«Rektor kubogi» – oliy ta'lim muassasalari darajasida.

Lider (leader) - inglizcha so'z bo'lib, tarjima qilinganda "Yetakchi, boshqaruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Liderlik tushunchasining o'ziga xos xususiyati ijtimoiy psixologiyadagi ikkita fenomen - yetakchilik va rahbaflik fenomenlarining qiyosiy tahlilida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Sportchilarning yagona maqsadga bo'ysungan holda, hamjihatlikda va kelishib faoliyat yuritish zaruriyati jamoani boshqarish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Jamoaning rahbari yoki lideri bo'ladigan Kishi albatta jamoaning boshqa a'zolari (boshqariladiganlar)ni o'ziga bo'ysundira oladigan shaxs bo'lmog'i lozim. Sotsial-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, umumiy vazifani hal etayotgan guruhda liderning mavjudligi faoliyatdagi muvaffaqiyatni ta'minlasa, liderning yo'qligi mazkur guruhning mag'lubiyatiga olib keladi. (N.F.Fedotova)

Psixologik muhit deyilganda quyidagilar tushuniladi: jamoaning emotsional holati, sportchilar o'rtasidagi ijobiy yoki salbiy shaxsiy munosabatlar, jamoada mojaroli holatlarning yo'qligi yoki mavjudligi kabi kompleks jarayonlar. Psixologik muhit har bir sportchining kayfiyatidan tarkib topadi: sportchining tetikligi, xotirjamligi yoki aksincha vahimaliligi, uning ushbu jamoa tarkibida ekanligidan qoniqishi psixologik iqlimning asosiy omillaridir. Emotsiyalar, psixologik iqlimning bir tomonini aks ettiradi. Uning yana bir muhim tomonlaridan biri bu jamoada shakllangan ma'naviy, axloqiy me'yorlar hamda qadriyatlardan iboratdir. Nohaq va g'irrom yo'l bilan qo'lga kiritilgan g'alaba agar jamoadagi o'yinchilarning xursandligiga sabab bo'lsa, demak ushbu jamoadagi psixologik iqlimni ijobiy baholash mumkin emas. Shu sababli ham jamoada ma'naviy axloqiy me'yorlarni shakllantirish, ya'ni sportchilarning jamoadagi xulq-atvorlarini belgilab beruvchi qoida va talablarni shakllantirish sog'lom psixologik iqlimni shakllantirishning eng muhim va bosh vazifalaridan biridir.



Jamoaning psixologik iqlimi haqida faqat uning g'alabani qanday kutib olishigina emas, balki muvaffaqiyatsizlikni qanday boshdan kechirishi, ya'ni jamoadagilarning mag'lubiyatga sabab bo'lgan omillarni ochiq va oydin ravishda tahlil etishga o'zlarida kuch topa olishi, o'yinda yuz bergan kamchilik va tushkunlikni bartaraf etish xususiyati ham muhim dalil bo'lishi mumkin.

Jamoadagi psixologik iqlimni shakllantirishda sportchilar o'rtasida ularning faoliyati va muloqatlari jarayonida yuzaga keladigan shaxsiy munosabatlar tizimi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Jamoadagi psixologik iqlimni shakllantirishda sportchilar o'rtasida ularning faoliyati va muloqatlari jarayonida yuzaga keladigan shaxsiy munosabatlar tizimi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu o'zaro munosabatlar jamoada ijobiy iqlimni shakllantirish bilan birga mojaroli vaziyatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ye.P.Ilinning fikriga ko'ra jamoada mojaroli vaziyatlarning yuzaga kelishiga quyidagi sabablar asos bo'lishi mumkin:

- jamoa a'zolarining yetarli darajada uyushmaganligi;
- sportchilar o'rtasida psixofiziologik, psixologik yoki ijtimoiy psixologik jihatdan muvofiqlikning mavjud emasligi;
- sportchilar malakasining ular oldiga qo'yilgan vazifalarga nomuvofiqligi;
- jamoada o'z imkoniyatlariga muvofiq bo'lmagan intilishlarga ega bo'lgan sportchilarning mavjudligi;
- jamoada yuqori tajovuzkorlik xususiyatiga ega va yetakchilik qilishga, o'zini lider o'rnida ko'rishga intiluvchi sportchilarning mavjudligi;
- bir tomondan ayrim o'yinchilarning o'z qobiliyati va mahorat darajasiga baho berishning va ikkinchi tomondan jamoa a'zolarining ular mahoratiga bergan bahosi o'rtasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi;
- jamoadoshlar orasida mashg'ulotlar rejimini buzish natijasida mahorat va fidoyilikning pasayib ketishi;
- o'yinchilar orasida asosiy tarkibga kirish uchun yashirin raqobatning mavjudligi;
- jamoada murabbiyning "arzandalari" borligi;
- murabbiy tomonidan sportchilarning moyilligi va imkoniyatlariga muvofiq kelmaydigan o'yin uslubini qabul qilishga majburlash;
- o'yinchilar tomonidan murabbiyning shaxs va mutaxassis sifatida tan olinmasligi;
- sport musobaqasi natijalarining jamoa kutgan natijalarga muvofiq kelmasligi;



· jamoada murabbiyning topshiriqlariga, mazkur jamoa bo'yicha ishlab chiqilgan me'yoriy talablariga turlicha munosabatda bo'ladigan guruhlarning mavjudligi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamoaviy sport turlarida lider yoki sardor bo'lishi va unga jamoa a'zolarining itoat qilishi jamoa muhitining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunga kelib jamoaviy sportchilarning psixologik holatining barqarorligi sport natijalari uchun muhim ahamiyatga ega. Sportchilarning musobaqa jarayonida o'zini tutishi raqib jamoa a'zolari bilan bo'ladigan turli xil tortishuvlarda o'zini to'g'ri boshqarishi yoki tartib saqlashi albatta, sportchilarning psixologik holatiga bog'liq bo'ladi. Sportchilarning psixologik holatini muntazam ravishda nazorat qilish kamchiliklarni bartaraf qilish sport psixologlarining zimmasidagi muhim vazifadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Sport jamolaridagi o'zaro munosabatni psixologik tahlil qilish

Mahmud Abdumutal o'g'li Yaxshiboyev va Xoliniso Ne'mat qizi O'taganova tomonidan yozilgan ushbu maqolada, sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlarning mazmuni, sharoiti va ta'siri o'rganilgan. Jamoadagi psixologik muhitni yaxshilash, sportchilar ma'naviy-ruhiy sifatlarini kamol toptirishda muhim omil sifatida tahlil qilingan.

2.Musobaqalarda sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlash

Ulug'bek Melikboboyevich Shomurotov, Shohzamon Abdisodiq o'g'li Rasulov va Azizbek Qurbonali o'g'li Ro'ziboyev tomonidan yozilgan ushbu maqolada, sportchining musobaqaga psixologik tayyorlanishi, ma'naviy, mafkuraviy, irodaviy, jismoniy, texnik va taktik tayyorgarliklarning ahamiyati yoritilgan. Maqola sportchilarni yuqori natijalarga erishish yo'lidagi psixologik tayyorgarlikning muhimligini ta'kidlaydi.

3.Liderlik haqidagi ilmiy fikrlarning ijtimoiy-psixologik xususiyati

Baxtiyor Tolibovich Manzitov tomonidan yozilgan ushbu maqolada, shaxsda liderlikni namoyon bo'lishi bo'yicha empirik tashkil etilgan natijalar asosida ilmiy-nazariy muhokama qilingan. Liderning qadriyatlar tizimidagi asosiy jihati - guruh manfaatini har narsadan ustun qo'yish, doimo guruh oldiga qo'yilgan vazifani yechishga sidqidildan kirishish va bu jarayonda jamoani safarbar eta olishidir-deb hisoblanadi.

4. Gapparov Zaxid Gapparovich. Sport psixologiyasi: Jlsmoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik Z G.Gapparov; tarjimon M.Omon; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi -T: "Mehridaryo", 2011-345 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.12.2024 yildagi PQ-421-son qarori.